

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.01/2025.27.12.P.03.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**XUDAYBERDIYEVA SEVARA BOXODIR QIZI**

**OILAVIY HAYOT SIKLLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR  
BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK  
OMILLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
psychological Sciences**

**Xudayberdiyeva Sevara Boxodir qizi**

Oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini  
ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari..... 3

**Худайбердиева Севара Боходир кизи**

Социально-психологические факторы обеспечения стабильности  
межличностных отношений в циклах семейной жизни ..... 23

**Khudayberdiyeva Sevara Bokhodir kizi**

Socio-psychological factors of ensuring the stability of interpersonal  
relationships in family life cycles..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 49

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.01/2025.27.12.P.03.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**XUDAYBERDIYEVA SEVARA BOXODIR QIZI**

**OILAVIY HAYOT SIKLLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR  
BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK  
OMILLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/P1014 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.psi-ik.uz](http://www.psi-ik.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Akramova Feruza Akmalovna,**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Baykunosova Gulmira Yuldibayevna,**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Fayziyeva Mavluda Xudayarovna,**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2025.27.12.P.03.02. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz))

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2026-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**K.B.Kadirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, psixologiya fanlari  
doktori, professor

**D.U.Abdullayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, psixologiya fanlari  
doktori, professor

**A.E. Muxtarova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Jahonda inson hayotida muhim o‘rin tutuvchi oila-nikoh, oilaviy qadriyatlar, oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan bog‘liq nizolarning kelib chiqishi masalalari ilmiy jamoatchilik diqqat markazidagi eng dolzarb muammolardandir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 47/237 Rezolyutsiyasi bilan 1993-yilda har yili 15-mayni «Xalqaro oila kuni» sifatida nishonlash e‘lon qilingani<sup>1</sup> oilaning dunyo miqyosida beqiyos va boqiy ijtimoiy tuzilma ekani, oilaning barbod bo‘lish holatlarining qayd etilish darajasi ortib borayotgan sharoitda oila institutini mustahkamlash uchun azaliy bo‘lgan masala – oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta‘minlashning ijtimoiy-psixologik omillari fenomenining alohida amaliy, konstruktiv hamda yangicha yondashuv orqali yechimlarini topishni davr taqozo etmoqda.

Jahon oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada oilaning barbod bo‘lishi holatlarining ortishi, er-xotin munosabatlarida oilaviy qadriyatlarning ijtimoiy-madaniy, hududiy, ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari, zamonga xos oilaviy qarashlar va tasavvurlarning oila mustahkamligi va baxtli bo‘lishini ta‘minlash, yoshlarda oilaga nisbatan mas‘uliyat hissini shakllantirish hamda oilani millat va davlat kelajagi uchun zarur qadriyat sifatida saqlab qolish uchun daxldorlik hissini tarkib toptirish muammosini ilmiy tadqiq etish zarurati yuzaga keladi va mazkur masala dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda oila institutini qo‘llab-quvvatlash, oilalarini mustahkamlash, oilalarda sog‘lom muhitni qaror toptirish, oilaviy munosabatlarni ijtimoiy-psixologik, huquqiy jihatdan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishga alohida e‘tibor qaralib, zarur huquqiy-me‘yoriy asoslar yaratildi: «Oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, «Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat» g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish...»<sup>2</sup>, «...Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo‘ladi»<sup>3</sup> tamoyiliga asoslanib, oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta‘minlashni ilmiy tadqiq etishda ijtimoiy-psixologik yondashuvni qo‘llash imkoniyatlari yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O‘RQ-837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 1-martdagi

<sup>1</sup> <http://rspc-samara.narod.ru/schoolpsych.html>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi to‘g‘risida Nizom. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 apreldagi 228-son qaroriga 1-ilova.

<sup>3</sup> <https://daryo.uz> 26.12.2020

PF-81-son «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlari, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son «O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 820-son «Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston psixolog olimlaridan D.U.Abdullayeva, F.A.Akramova, H.Abdusamatov, Z.E.Abduraxmonova, R.M.Abdullayeva, Z.B.Bilolova, O.E.Eshmuradov, N.X.Djuxonova, R.Dushanov, U.R.Ibadullayeva, V.M.Karimova, X.K.Karimov, N.X.Lutfullayeva, Sh.N.Murotova, G.Niyazmetova, B.Sh.Norbekova, Z.A.Rasulova, F.R.Ro'ziqulov, A.T.Ro'ziqulova, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov, S.Sh.Ummatova, M.A.Utepbergenov, M.X.Fayziyeva, U.D.Qodirov, O'.B.Shamsiyev, G'.B.Shoumarov, G.X.Yunusova, G.T.Yadgarova va boshqalar tomonidan oilada shaxslararo munosabatlar, oila qurish motivlari, yoshlarning oilaviy xayotga doir tasavvurlari, stereotiplari, psixologik ustanovkalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Lekin oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari muammosi maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan G.M.Andreyeva, Yu.A.Alyoshina, V.V.Boyko, A.L.Varga, T.V.Galkina, L.Ya.Gozman, S.I.Golod, E.G.Eydemiler, A.V.Petrovskiy, A.G.Xarchev, N.F.Fedotova, V.V.Rozanonov, N.N.Abozov, S.V.Kovolov, E.Tiyd, A.V.Shabayeva va boshqalar tomonidan oila masalalari bilan bo'g'liq tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, mazkur mualliflarning tadqiqotlarida asosan oila qurish motivlari, nikoh qurishgacha tanishish muddati masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan A.Adams, W.Berg, L.Bumpass, S.T.Billingsley, R.C.Bean, D.E.Delis, E.T.Burgess, P.D.Wollin, F.Zimbardo, D.Jodelet, T.Parsons, C.Rogers, M.Campbell, G.E.Kraig, J.Quayet, M.M.Sveeney, R.Chaldini, K.X.Kaufman, J.Lofas, K.M.Schafer, T.C.Martin, L.G.Terman, Z.Freyd, L.William va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida oila va u bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik muammolar ilmiy tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Psixologiya tarixini o'rganish, umumiy psixologiya

mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konseptual asoslarini tadqiq qilish» nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan (2021-2024-y.y.).

**Tadqiqotning maqsadi** oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillarini empirik jihatdan o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

oilaviy hayot siklida shaxslararo munosabatlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash;

turli turmush tajribasiga ega oilalarda er-xotin munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash;

turli turmush tajribasiga ega oilalarda ota-ona va farzand munosabatlarining o'ziga xosligini ilmiy tadqiq etish;

oilaviy muhit dinamikasi va oilaviy hayotdan qoniqish darajasining o'zaro aloqadorligini empirik tadqiq etish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillarini empirik jihatdan o'rganish jarayoni tanlangan bo'lib, tajriba-sinovga Toshkent shahridan 196 nafar, Samarqand viloyatidan 164 nafar va Farg'ona viloyatidan 196 nafar ota-ona maqomidagi er-xotinlar jalb etildi, tadqiqot respondentlarining umumiy soni 556 nafarni tashkil etdi.

**Tadqiqot predmetini** oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jaroyonida suhbat, so'rovnoma, kuzatish, metodlari, shuningdek, T.Lirining «Shaxslararo munosabatlarni aniqlash» metodikasi (E.G'.G'oziyev modifikatsiyasi), S.Yu.Kupriyanovning «Oilaviy muhit shkalasi» testi (M.X.Fayziyeva modifikatsiyasi), V.V.Stolin, T.L.Romanova, G.P.Butenkolarning «Oilaviy hayotdan qoniqish so'rovnomasi», Ye.U.Alyoshina, L.Ya.Gozman, Ye.M.Dubovskayalarning «Oilada rollar taqsimoti» metodikasi (G'.B.Shoumarov modifikatsiyasi), Yu.Varga va V.V.Stolinlarning «Ota-ona va bola munosabatlari diagnostikasi» (G'.B.Shoumarov, N.A.Sog'inovlar modifikatsiyasi) metodikasi, hammualliflikdagi «Oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash» (F.A.Akramova, S.B.Xudayberdiyevlar) ijtimoiy psixologik so'rovnomasidan (IPS) foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Kolmogorov-Smirnovning Z mezoni, Styudentning t mezoni, dispersion tahlil – F mezoni hamda K.Pirsonning parametrik korrelyatsion tahlil – r mezoni orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

turli oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlarning oila mustahkamligiga ta'siri ijtimoiy identifikatsiyaning simpatiya hissining kuchayishi

asosida barqarorlashuviga ko‘ra oiladagi farzand tarbiyasiga nisbatan rolli kutilmalar asimmetriyasiga bog‘liq ravishda dinamik namoyon bo‘lishi dalillangan;

oilaviy hayot sikllarida oilaviy muhit dinamikasi shaxslararo munosabatlarda milliy qadriyatlarga muvofiq erkaklarda o‘ziga ishonch, rahmdillik, ayollarda esa itoatkorlikning dominant namoyon bo‘lishiga asoslanib, muloqotdagi ijtimoiy ustanovkalar va konformistik pozisiyaning integrativ shakllanishiga bog‘liq ekani aniqlangan;

oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta‘minlash er-xotinning o‘zaro munosabatlaridagi qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy faollik darajasi ortishiga adaptiv integratsiyasiga muvofiq, ota va onaning farzandni emotsional qabul qilishidagi qarashlari va ideallarining yakdil qadriyat sifatidagi ta‘siriga bog‘liq ekani isbotlangan;

turli oilaviy hayot sikllarida barqaror shaxslararo munosabatlarning namoyon bo‘lishi er-xotinlar orasidagi o‘zaro va oilaviy hayotga bo‘lgan psixologik, emotsional, kommunikativ ustanovkalar hamda majburiyatlar taqsimotiga asoslanib, er va xotinning ijtimoiy rollariga xos ekspressiv-hissiy holatlarning bola tarbiyasiga oid ota-onalik rollariga integratsiyasi ta‘sirida felisitologik pozisiyaning yuzaga kelishiga bog‘liq ekani dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta‘minlashning ijtimoiy-psixologik omillari tizimlashtirilgan;

oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlarning turli ko‘rinishlari; er-xotin, ota-ona va farzand munosabatlarning psixologik xususiyatlari aniqlanib, uning barqarorligini ta‘minlovchi ijtimoiy-psixologik omillar empirik jamlangan, tavsiyalar amaliyotda aprobeatsiya qilingan;

oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligiga xizmat qiladigan xususiyatlarni takomillashtirish zaruratiga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot obyektining maqsadga mos tanlangani, ilmiy tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, olingan empirik natijalarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil etilgani, tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslangani, xalqaro miqyosida e‘tirof etilgan metodikalar vositasida aniqlangani, olingan empirik izlanishlar nazariy asoslangani, olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar va ma‘lumotlarni qayta ishlash dasturi yordamida korrelyatsion qayta ishlangani va psixologik interpretatsiya qilingani, xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani; olingan natijalar keng ilmiy jamoatchilik o‘rtasida muhokama qilinib, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha «Ijtimoiy psixologiya», «Etnopsixologiya», «Oilaviy munosabatlar psixologiyasi» va «Psixologik xizmat» fanlarini nazariy jihatdan boyitish, o‘quv qo‘llanma, darsliklar tayyorlash va psixologik lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oila qurish arafasidagi yoshlarda oilaga doir tushunchalar shakllanishida oila institutining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga oluvchi psixokorreksiyon va psixokonsultativ yoʻnalishlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** «Oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini taʼminlashning ijtimoiy-psixologik omillari» yuzasidan olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

turli oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlarning oila mustahkamligiga taʼsiri ijtimoiy identifikatsiyaning simpatiya hissining kuchayishi asosida barqarorlashuviga koʻra oiladagi farzand tarbiyasiga nisbatan rolli kutilmalar asimmetriyasiga bogʻliq ravishda dinamik namoyon boʻlishi dalillanganiga doir takliflar Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya oʻquv-ilmiy Markazining 2025-yil 18-avgustdagi PM-438-son buyrugʻiga asosan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Psixologiya oʻquv-ilmiy Markazining 2025-yil 20-avgustdagi PM-438a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, mahalla oilalari va FXDYo boʻlimida oilalarni mustahkamlash uchun aholi va yoshlarga tavsiyalar berilgan;

oilaviy hayot sikllarida oilaviy muhit dinamikasi shaxslararo munosabatlarda milliy qadriyatlarga muvofiq erkaklarda oʻziga ishonch, rahmdillik, ayollarda esa itoatkorlikning dominant namoyon boʻlishiga asoslanib, muloqotdagi ijtimoiy ustanovkalar va konformistik pozisiyaning integrativ shakllanishiga bogʻliq ekani aniqlanganiga doir ilmiy xulosalar Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya oʻquv-ilmiy Markazining 2025-yil 18-avgustdagi PM-438-son buyrugʻiga asosan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Psixologiya oʻquv-ilmiy Markazining 2025-yil 20-avgustdagi PM-438a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, mahalla oilalari va FXDYo boʻlimida oilalarni mustahkamlash uchun aholi va yoshlarga tavsiyalar berish uchun vakolatli mutaxassislar amaliy faoliyatida zarur boʻlgan tavsiyalar taqdim etilgan;

oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini taʼminlash er-xotinning oʻzaro munosabatlaridagi qadriyatlar transformatsiyasini ijtimoiy faollik darajasini ortishiga adaptiv integratsiyasiga muvofiq, ota va onaning farzandni emotsional qabul qilishidagi qarashlari va ideallarining yakdil qadriyat sifatidagi taʼsiriga bogʻliq ekani isbotlangan ilmiy xulosalar Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya oʻquv-ilmiy Markazining 2025-yil 18-avgustdagi PM-438-son buyrugʻiga asosan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Psixologiya oʻquv-ilmiy Markazining 2025-yil 20-avgustdagi PM-438a-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, boʻlajak pedagog-psixolog mutaxassislar uchun oilada «ota-ona-bola» munosabatlari psixologiyasiga oid oʻquv mashgʻulotlar mazmunini takomillashtirishga erishilgan;

turli oilaviy hayot sikllarida barqaror shaxslararo munosabatlarning namoyon boʻlishi er-xotinlar orasidagi oʻzaro va oilaviy hayotga boʻlgan psixologik, emotsional, kommunikativ ustanovkalar hamda majburiyatlar taqsimotiga asoslanib, er va xotinning ijtimoiy rollariga xos ekspressiv-hissiy holatlarni bola tarbiyasiga oid ota-onalik rollariga integratsiyasi taʼsirida felisitologik pozisiyaning yuzaga kelishiga

bog‘liq ekani dalillangan ilmiy xulosalar O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2025-yil 18-avgustdagi PM-438-sonli buyrug‘iga asosan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2025-yil 20-avgustdagi PM-438 a-son ma‘lumotnomasi). Mazkur xulosalarning joriy etilishi natijasida bo‘lajak pedagog-psixolog mutaxassislar uchun oila bilan ishlashda «er-xotin, ota-ona–farzand, qaynona-kelin» munosabatlari psixologiyasiga oid o‘quv mashg‘ulotlari mazmunini takomillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 4 ta xorijiy va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasi doktorlik dissertatsiyaalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 160 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, ilmiy yangiligi ko‘rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot doirasida e‘lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Oilaviy hayot siklida shaxslararo munosabatlarni tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlanib, oilaviy hayot siklida shaxslararo munosabatlar haqidagi adabiyotlar tahlili, oila barqarorligini saqlashga doir zardushtiylikning qadimgi manbasi «Avesto», o‘tmish mutafakkirlari Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston», «Minerologiya», Abu Ali ibn Sinoning «Tadbiri manzil», Yusuf xos Xojibning «Qutadg‘u bilig‘», Alisher Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarlaridagi qimmatli g‘oyalar bayon etilgan.


O‘zbekiston psixolog olimlari R.N.Alimardonova, X.Abdusamatov, D.U.Abdullayeva, R.M.Abdullayeva, F.A.Akramova, Z.B.Bilolova, R.X.Dushanov, U.R.Ibadullayeva, V.M.Karimova, X.K.Karimov, N.X.Lutfullayeva, Sh.Murotova, G.Niyazmetova, B.Sh.Norbekova, Z.A.Rasulova, F.R.Ro‘ziqulov, A.T.Ro‘ziqulova, M.S.Salayeva, R.S.Samarov, B.M.Umarov, M.A.Utepbergenov, M.X.Fayziyeva, U.D.Qodirov, O‘.B.Shamsiyev, G‘.B.Shoumarov, G.X.Yunusova va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari V.N.Drujinin, Margeret Mid, L.Kovar, S.Brodi, E.K.Vasileva, I.V.Grebennikov, S.V.Kovalev, V.A.Sisenko va boshqalarning tadqiqotlarida oilaviy hayotga tayyorlash, oila-nikoh, nikohga

ma'naviy tayyorgarlik masalalari, ijimoiy tasavvurlar, oila a'zolarining mavqei, oilada farzand tarbiyasi borasidagi ilmiy izlanishlari tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Oilaviy hayot siklida shaxslararo munosabatlar barqarorligining empirik metodologiyasi**»ga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bobda tadqiqotda qo'llangan metodikalarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalar tahlili va korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash bosqichlari bayon etilgan. Jumladan, turli turmush tajribasiga ega oilalarda shaxslararo munosabatlar haqidagi ijtimoiy-psixologik tasavvurlarni o'rganish bo'yicha mualliflik so'rovnomasi (IPS) natijalari keltirilgan.

Tadqiqot doirasida oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlarni o'rganish bo'yicha ijtimoiy-psixologik so'rovnomani (IPS) o'tkazish uchun viloyatlar kesimida turli turmush stajiga ega bo'lgan oilalar tanlab olindi. Mazkur so'rovnoma orqali jami (n=556) nafar respondent er-xotinning oilaviy hayotdan qoniqqanligi, turmushi qay darajada ekani, baxtli oila, oiladagi nizolarni bartaraf etish, turli muammolarni ijobiy hal qilish, oilada er-xotinning rollari taqsimoti haqidagi tasavvurlari o'rganildi.




**1-rasm. «Sizningcha, farzandli bo'lishdan maqsad nima?» savoli javoblari, jinslar kesimida, n=556**

1-rasmdan ko'rinadiki, «Sizningcha, farzandli bo'lishdan maqsad nima?» degan savolga ayollarning 24.22 foizi, erkak respondentlarning 33.37 foizi «milliy qadriyatlarni davom ettirish» degan javobni bergan. Bunga ko'ra, ota-onalar farzandli bo'lishdan maqsadlarini quyidagicha izohlab berishdi: ular milliy qadriyatlarni saqlash va uzatish ehtiyojining mavjudligi, farzandlar hayotning davomchisi ekani, ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyat hissining mavjudligi, kelajakni barpo etishdagi ustanovkalar, o'zlikni anglash va milliy identiklikni mustahkamlash, farzandlarga milliy qadriyatlarni o'rgatish asosiy maqsad ekanligi qayd etilgan.

«Sizningcha, farzandli bo'lishdan maqsad nima?» savoliga ayollarning 39.13 foizi, erkak respondentlarning 40.6 foizi «Farzandlar kamolini ko'rish» javobi berilgan. Bunga ko'ra, ota-onalik hissi va ma'naviy qoniqishning ayollar va erkaklarda mavjudligi, farzand o'zlarining biologik va ma'naviy davomchisi ekani, jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar ta'siri, farzandlarni tarbiyalash, farzandlari orqali qondiriladigan ehtiyojlar, ota-onalik ehtiyoji, ijtimoiy qadriyatlar va hayotning ma'nosini farzand orqali qo'rishga bog'liq

bo'lgan tabiiy insoniy ehtiyojlari mavjudligi respondentlarning javoblarida qayd etildi.




**2-rasm. «Sizningcha, farzandli oilalarda ota-ona va bola munosabatlari qanday ko'rinishda bo'ladi?» savoli javoblari, hududlar kesimida, n=556**

«Sizningcha, farzandli oilalarda ota-ona va bola munosabatlari qanday ko'rinishda bo'ladi?» savoliga Toshkent shahri respondentlarining 17.86 foizi, Samarqand viloyati respondentlarining 43.29 foizi va Farg'ona viloyati respondentlarining 36.63 foizi «ota pul topish bilan band, ona farzand tarbiyalaydi» - deb javob berishgan. Bu borada eng yuqori natija Samarqand viloyati respondentlariga tegishli bo'lib, ularning fikricha, otaning roli moddiy ta'minotchi, uning asosiy vazifasi oila a'zolarining ehtiyojlarini qondirishi, uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa xarajatlar bilan ta'minlashi, otaning mehnatsevarligi, mas'uliyatlilik, axloqiy qadriyatlari farzandlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Onaning roli farzandlarni tarbiyalash, odob-axloq, hayotiy ko'nikmalarni o'rgatishdan iborat, ular onani ruhiy va hissiy qo'llab-quvvatlovchi, oilaviy muhitni yaratuvchi, g'amxo'r, mehribon, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlovchi shaxs sifatida ko'rishlari ma'lum bo'ldi.

Toshkent shahri respondentlar 29.08 foizi, Samarqand viloyati respondentlarining 21.95 foizi, Farg'ona viloyati respondentlarining 27.04 foizi «Ota-ona bolalarga birdek mehr berolmaydi» javobini berishgan. Unga ko'ra, Toshkent shahri respondentlarida ish hajmining ortishi, ularning har ikkalasi ishlashga majbur ekani, ish vaqti, doimiy stress va charchoq, farzandlarga vaqt ajrata olmaslik, iqtisodiy va moliyaviy majburiyatlar, mobil vositalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, bola parvarishi va noto'g'ri shakllangan tasavvurlar va moddiy jihatdan ta'minlanishning yetarli emasligi aniqlandi.

«Sizningcha, ko'p farzandli oilalardagi bolalarning bir-biri bilan munosabatlari qanday ko'rinishda bo'ladi?» savoliga 1-5-yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan ota-onalarning 15.31 foizi, 6-11-yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan ota-onalarning

28.79 foizi, 12-20-yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan ota-onalarning 33.98 foizi «farzandlar ahil bo'ladi» deb javob bergan.



**3-rasm. «Sizingcha, ko'p farzandli oilalarda bolalar o'zaro munosabatlari qanday bo'ladi?» savoli javoblari, oila stajiga ko'ra, n=556**

Ko'p farzandli oilalarda bolalarning ahil bo'lishi 1-5-yillik turmush tajribasiga ega oilalarda keng tarqalgan, buning psixologik sabablari sifatida farzandlarning bir-birini qo'llab-quvvatlashi, ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanishi, bolalarning bir-biriga suyanishga o'rganishi, empatiya va g'amxo'rlik qilish, bir-biriga yordam berish, kattalarning ularga o'rnak bo'lishi ko'p farzandli oilada shakllanishini ko'rsatdi. Bu toifa ota-onalarning 39.29 foizi, 6-11-yillik turmush tajribasiga ega ota-onalarning 29.96 foizi, 12-20-yillik turmush tajribasiga ega ota-onalarning esa 38.83 foizi «farzandlar tarqoq bo'ladi» deb javob berishgan. Oilalarda farzandlar soni ko'paygani sari, turmush tajribasi turlicha bo'lgan ota-onalar orasida farzandlarning tarqoq bo'lib qolishi xavotirlari paydo bo'ladi. 1-5-yillik turmush tajribasiga ega oilalar (yosh oilalar)da ko'pincha moliyaviy va vaqt resurslari cheklangan bo'ladi. 6-11-yillik turmush tajribasiga ega oilalarda oilalar nisbatan barqarorlashgan, ammo farzandlar ulg'ayib, o'smirlik davri boshlangan bo'ladi. Bu esa farzandlar ulg'aygan sari ularning qiziqishlari, ehtiyojlari ortadi. Agar oilada bir nechta farzand bo'lsa, ularning har biriga alohida yondashuv talab etiladi. Ota-onalarning charchog'i va stressi: bu davrda ota-onalar ish, uy ishlari va farzandlar tarbiyasi bilan bog'liq surunkali charchoq va stressni boshdan kechirishadi. 12-20-yillik turmush tajribasiga ega oilalarda, katta farzandlari kollej yoki ishga kirish arafasida bo'lishi, bu davrda asosan, farzandlarning oiladan uzoqlashishi xavotirlari kuchayadi.

1-5-yillik turmush tajribasiga ega ota-onalarning 30.06 foizi, 6-11-yillik turmush tajribasiga ega ota-onalarning 22.57 foizi va 12-20-yillik turmush tajribasiga ega ota-onalarning 30.06 foizi «farzandlarda yetishmovchilik hissi bo'ladi» deb javob bergan. Bu esa ota-ona diqqatining bo'linishi bilan bog'liqdir. Asosiy psixologik sabablar: ota-onalarning diqqati va vaqti cheklangan bo'lib, ular ko'p farzandlar o'rtasida taqsimlanishiga to'g'ri kelishi, bu esa farzandda «menga yetarlicha e'tibor

berilmayapti», «mening muammolarimga quloq solinmayapti» hissini yuzaga keltiradi, farzandlar o'zlarini boshqalardan kamroq narsaga egadek his qilishlari, tengdoshlariga nisbatan yetishmovchilikni his etishi, bu esa hasad hislarini keltirib chiqarishiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari borligi e'tibordan chetda qolishi esa farzandning o'z individualligini namoyon etishga qiynalishiga va o'z shaxsini to'liq anglab yetmasligiga olib kelishi mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar**» tahliliga bag'ishlangan. Oilaviy hayot sikllarida shaxslararo munosabatlar barqarorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik ko'plab turli omillar oila ichidagi munosabatlarning rivojlanishi va barqarorligini belgilaydi.

**1-jadval**

**T.Lirining «Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi» metodikasining jinslar bo'yicha natijalari, n=556**

Shkalalar	jins	n	m	Std.og'ish	t	p
Liderlikka moyillik.	E	234	8,37	3,02	-1,59	0,11
Hukmronlik	A	322	8,79	3,14		
O'ziga ishonch – o'zini yaxshi ko'rish	E	234	8,64	3,02	3,70	0,00**
	A	322	7,68	3,02		
Talabchanlik, murosasizlik,	E	234	8,12	2,38	0,47	0,64
	A	322	8,02	2,75		
Ishonchsizlik – qaysarlik, salbiylik	E	234	8,02	1,83	0,85	0,40
	A	322	7,88	2,04		
Yon berish – passiv bo'ysunuvchanlik	E	234	7,99	1,82	-0,44	0,66
	A	322	8,06	1,97		
Ishonuvchanlik – itoatkorlik	E	234	8,05	2,27	1,74	0,08*
	A	322	7,73	2,09		
Ko'ngilchanlik –yon beruvchilik	E	234	8,45	2,38	-0,85	0,40
	A	322	8,62	2,47		
Rahmdillik – fidokorlik	E	234	8,98	2,68	-1,75	0,08*

Izoh: \* p<0,05; \*\* p<0,01; \*\*\* p<0,001; E – Erkak; A- Ayol.

1-jadvalda T.Lirining «Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi» metodikasi bo'yicha oilaviy hayot siklida shaxslararo munosabatlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etish natijalari berilgan. Jadval natijalariga ko'ra, shaxslararo munosabatlar diagnostikasi jinslar bo'yicha tahlil qilingan, «O'ziga ishonch – o'zini yaxshi ko'rish» shkalasi bo'yicha ayollar va erkaklar o'rtacha arifmetik qiymatlarida ahamiyatli farqlar aniqlandi ( $t=0.00$ ;  $p<0,01$ ). Unga ko'ra, erkaklarda o'ziga nisbatan ishonchning yuqori ekani, o'zini yaxshi ko'rish istagining yuqoriligi psixologik, fiziologik jihatdan ustunligi bilan farqlanadi. Erkaklar o'z kuchiga va ashqi ko'rinishiga yuqori baho berishligi, biologik jihatdan erkaklardagi testosteron garmoni ularda o'ziga ishonch, jasorat, mardlik hissini kuchaytirib beradi, shaxslararo munosabatlarning mazmuni va yo'nalishiga bevosita ta'sir

ko'rsatadi. Qadriyatlarga tayangan rollar tizimi muloqot jarayonida muayyan ijtimoiy ustanovkalarni yuzaga keltiradi. Natijada, oilaviy muhitda konformistik pozitsiya, ya'ni mavjud an'ana va me'yorlarga moslashish, o'z xatti-harakatini umumiy qabul qilingan qadriyatlarga muvofiqlashtirish – integrativ tarzda shakllanadi. Bu esa oila ichidagi ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash, ziddiyatlarni yumshatish va barqarorlikni mustahkamlash, muloqotdagi ijtimoiy ustanovkalarning o'zaro integratsiyasi bilan belgilanadi.

## 2-jadval

### T.Lirining «Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi» metodikasi, hududiy natijalari, n=392

Shkalalar	Viloyat	n	M	Std.og'ish	t	p
Liderlikka moyillik. Hukmronlik	F	196	8,71	3,24	2,51	0,01*
	T	196	7,98	2,44		
O'ziga ishonch – o'zini yaxshi ko'rish	F	196	8,39	3,28	2,03	0,04*
	T	196	7,81	2,32		
Talabchanlik, murosasizlik, shafqatsizlik	F	196	8,21	3,32	1,02	0,31
	T	196	7,93	1,97		
Ishonchsizlik – qaysarlik, salbiylik	F	196	7,28	2,15	-5,50	0,00**
	T	196	8,36	1,71		
Yon berish – passiv bo'ysunuvchanlik	F	196	7,90	2,22	-1,10	0,27
	T	196	8,12	1,82		
Ishonuvchanlik – itoatkorlik	F	196	7,48	2,12	-2,13	0,03*
	T	196	7,97	2,43		
Ko'ngilchanlik – haddan tashqari yon beruvchilik	F	196	9,19	2,80	3,16	0,00**
	T	196	8,39	2,13		
Rahmdillik – fidokorlik	F	196	9,92	3,00	5,18	0,00**
	T	196	8,58	2,00		

**Izoh:** F-Farg'ona, T-Toshkent, \* statistik tafovutlar mavjud

2-jadval natijalariga ko'ra, viloyatlar kesimida «Liderlikka moyillik Hukmronlik shkalasi» bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymatlari o'rtasida ahamiyatli farq aniqlandi ( $t=0.01; p<0,01$ ). Bunga ko'ra, Farg'ona viloyatida yashovchi respondentlarda Toshkent shahri respondentlariga qaraganda ko'rsatkichlar yuqori ekani, respondentlarda psixologik omillardan o'z-o'zini namoyon qilish, ichki motivatsiyaning ustunligi, tashabbuskorlik hissining mavjudligi, hukmronlik qilish, qat'iylik, qaror qabul qilishda shoshilish, itoat etishdan ko'ra boshqarishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi aniqlandi.

«O'ziga ishonch – o'zini yaxshi ko'rish shkalasi» bo'yicha viloyatlar bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymatlari o'rtasida ahamiyatli farq aniqlandi ( $t=0.04; p<0,01$ ). Farg'ona viloyati respondentlarda Toshkent shahri respondentlariga qaraganda o'ziga ishonchning yuqori ekani, o'z mavqeini boshqalarga qaraganda ustun qo'yishi,

ijtimoiy faolligi, ijobiy munosabatni o'rnatishga harakat qilishi, o'zlarini yaxshi ko'rishi, qadriyatlarini o'z foydasiga qarata olishi, muammolarni tez hal qilishga moyilligi aniqlandi.

### 3-jadval

#### T.Lirining «Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi» metodikasi natijalari, oila stajiga ko'ra, n=452

Shkalalar	Oilaviy staj	N	M	Std.og'ish	t	p
Liderlikka moyillik. Hukmronlik	1-5-yil	195	8,71	3,24	-0,09	0,93
	6-11-yil	257	8,74	3,17		
O'ziga ishonch – o'zini yaxshi ko'rish	1-5-yil	195	8,39	3,28	1,54	0,12
	6-11-yil	257	7,93	3,15		
Talabchanlik, murosasizlik, shafqatsizlik	1-5-yil	195	8,21	3,32	0,33	0,74
	6-11-yil	257	8,12	2,18		
Ishonchsizlik – qaysarlik, salbiylik	1-5-yil	195	7,28	2,15	-5,92	0,00**
	6-11-yil	257	8,36	1,72		
Yon berish – passiv bo'ysunuvchanlik	1-5-yil	195	7,90	2,22	-1,54	0,13
	6-11-yil	257	8,18	1,62		
Ishonuvchanlik – itoatkorlik	1-5-yil	195	7,48	2,12	-3,30	0,00**
	6-11-yil	257	8,11	1,93		
Ko'ngilchanlik – haddan tashqari yon beruvchilik	1-5-yil	195	9,19	2,80	5,12	0,00**
	6-11-yil	257	8,00	2,12		
Rahmdillik – fidokorlik	1-5-yil	195	9,92	3,00	3,92	0,00**

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ ; \*\*\*  $p \leq 0,001$

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, oilaviy hayot sikllari davomida shaxslararo munosabatlarning sifat darajasi, ijtimoiy idendifikatsiyaning shakllanishi va farzand tarbiyasiga oid rolli kutilmalar o'rtasidagi muvozanat oila mustahkamligining muhim determinantlari sifatida namoyon bo'ladi. 1 yildan 11 yilgacha turmush tajribasi bo'lgan oilalarda shaxslararo munosabatlar diagnostikasi natijalariga ko'ra, «Ishonchsizlik – qaysarlik, salbiylik» shkalasi bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymatlar o'rtasida ahamiyatli farq aniqlandi ( $t=0.00$ ;  $p < 0,01$ ). Unga ko'ra, 6-11-yillik turmush tajribasiga ega oilalarda uzoq yillik tajribasidan kelib chiqib, er-xotin o'rtasidagi qaysarlik, ishonchsizlik oilaviy munosabatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunga oilalarda emotsional ruhiy va ijtimoiy barqarorligiga ta'sir etishi, qarorlar qabul qilishda qarshilik ko'rsatish, tez-tez salbiy munozaralarning kelib chiqishi, bir-birini eshitmaslik, emotsional uzoqlashuv, bir-birini ayblash, ayolda ham erkakda ham shaxsiy ichki ishonchsizlik va nazorat qilishi kabi sabablar tadqiqotda aniqlandi.

4-jadvalda A.Y.Varga va V.V.Stolinlarning «Ota-ona va bola munosabatlari diagnostikasi» metodikasi natijalari berilgan. Unga ko'ra, ota-ona va bola munosabatlari diagnostikasi o'rganilganda o'rtacha arifmetik qiymatlarning ahamiyatli farqi aniqlanmadi. Natijalarida «Qabul qilish – begonalashuv», «Kooperatsiya», «Simbioz», «Avtoritarizm», «Infantillik» shkalalari bo'yicha ota-ona va bolalarning munosabatlarida aynan o'xshashlik holatlarining mavjudligi, farzandlarga g'amxo'rlik

qilish ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan maqsadlarning mosligi, ota-ona va farzandlarning o'rtasidagi emotsional hissiy bog'liqlik mavjud ekani kuzatildi.

#### 4-jadval

#### A.Y.Varga va V.V.Stolinlarning «Ota-ona va bola munosabatlari diagnostikasi» metodikasi natijalari, n=556

Shkalalar	Shaxslar	n	m	Std. og'ish	t	P
Qabul qilish – begonalashuv	Otalar	234	4,17	1,42	-0,78	0,43
	Onalar	322	4,26	1,29		
Kooperatsiya	Otalar	234	3,88	1,45	-0,99	0,32
	Onalar	322	4,01	1,50		
Simbioz	Otalar	234	3,82	1,63	0,08	0,94
	Onalar	322	3,81	1,56		
Avtoritar	Otalar	234	3,69	1,62	-0,31	0,76
	Onalar	322	3,73	1,62		
Infantillik	Otalar	234	3,65	1,61	1,08	0,28
	Onalar	322	3,51	1,54		

Izoh: \* p≤0,05; \*\* p≤0,01; \*\*\* p≤0,001

Ota va onaning farzandni emotsional qabul qilishiga oid qarashlari, tarbiyaviy maqsadlari muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Agar ularning farzandga nisbatan mehr, qo'llab-quvvatlash, tushunish va qabul qilish borasidagi tasavvurlari o'zaro uyg'unlashgan bo'lsa, bu qarashlar yakdil qadriyatga aylanadi. Natijada oilada yagona tarbiyaviy pozitsiya shakllanib, farzand tarbiyasida izchillik va psixologik barqarorlik ta'minlanadi.

#### 5-jadval

#### A.Y.Varga va V.V.Stolinlarning «Ota-ona va bola munosabatlari diagnostikasi» metodikasi, hududiy natijalari, n=392

Shkalalar	hudud	n	m	Std.og'ish	t	p
Qabul qilish – begonalashuv	Farg'ona	196	4,52	1,31	5,76	,00**
	Toshkent	196	3,74	1,34		
Kooperatsiya	Farg'ona	196	4,02	1,43	3,58	,00**
	Toshkent	196	3,48	1,52		
Simbioz	Farg'ona	196	3,70	1,53	0,35	0,73
	Toshkent	196	3,65	1,59		
Avtoritarizm	Farg'ona	196	3,70	1,61	2,12	,03*
	Toshkent	196	3,35	1,65		
Infantillik	Farg'ona	196	3,41	1,57	-1,42	0,16
	Toshkent	196	3,63	1,51		

Izoh: \* p≤0,05; \*\* p≤0,01; \*\*\* p≤0,001

5-jadval natijalariga ko'ra, Farg'ona viloyati va Toshkent shahri bo'yicha «Qabul qilish - begonalashuv shkalasida» o'rtacha arifmetik qiymatlarda ahamiyatli

farqlari aniqlandi ( $t=0.00$ ;  $p<0,01$ ). Toshkent shahri respondentlarining Farg‘ona viloyati respondentlari natijalarigan farqi yuqori ekani kuzatildi. Farg‘ona viloyatidagi ota-onalar bola shaxsini hurmat qilishlari, ular bilan birgalikda vaqt o‘tkazishlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini doimiy inobatga olishadi. Bunday tafovut oiladagi shaxslararo munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi.

#### 6-jadval

#### A.Y.Varga va V.V.Stolinlarning «Ota-ona va bola munosabatlari diagnostikasi» metodikasi, oilaviy staj bo‘yicha natijalari, n=298

Shkalalar	Oila staji	n	m	Std.og‘ish	t	p
Qabul qilish – begonalashuv	1-5 yil	195	4,52	1,31	6,82	0,00**
	12-20 yil	103	3,42	1,35		
Kooperatsiya	1-5 yil	195	4,02	1,43	5,79	0,00**
	12-20 yil	103	3,01	1,44		
Simbioz	1-5 yil	195	3,70	1,53	0,72	0,47
	12-20 yil	103	3,56	1,68		
Avtoritarizm	1-5 yil	195	3,70	1,61	1,70	0,09*
	12-20 yil	103	3,36	1,73		
Infantillik	1-5 yil	195	3,41	1,57	-0,35	0,73
	12-20 yil	103	3,48	1,50		

Izoh: \*  $p\leq 0,05$ ; \*\*  $p\leq 0,01$ ; \*\*\*  $p\leq 0,001$

